

Kasbiy Malaka Oshirish Jarayonida Metodistning Androgogik Tahlili

Kompetentsiyasini Rivojlantirishi

Usmonov Adxam Abduxamidovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Harbiy talim fakulteti umumqo'shin tayyorgarlik tsikl o'qituvchisi

Annotatsiya:

ushbu maqolada kasbiy malaka oshirish jarayonida metodistning androgogik kommunikativ, metodik ishlarini taxlili kompetentsiyasini rivojlantirish va nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish yo'llarini o'rganadilar, bo'shiqlarini to'diradilar, markaz professor-o'qituvchilar va tinglovchilar bilan o'zaro tajriba almashadilar va bu yo'nalishda ijodiy ishlarni bajaradilar, amaliyotga joriy etish yuzasidan zaruriy metodik materiallar haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy, malaka, oshirish jarayoni, metodist, androgogik, (kommunikativ, metodik ishlarini taxlili,) kompetentsiyasi, rivojlantirish, Andragogikada, o'quvchi shaxsiga, ta'lif, mashg'ulotlar, mezonlar, mutaxassis, kasb darajasi, kasbiy shaxsiy, dolzarbliji.

Аннотация:

В данной статье Анализ андрогенной коммуникативной, методической работы методиста в процессе профессиональной переподготовки изучаются пути развития компетенции и применения теоретических знаний на практике, восполняются пробелы, центр обменивается опытом с профессорско-преподавательским составом и слушателями и проводит творческую работу в этом направлении, рассматриваются необходимые методические материалы по внедрению в практику.

Ключевые слова: профессиональная, квалификационная, процесс повышения, методист, андрологическая, компетенция (анализ коммуникативной, методической работы,), развитие, Андрагогичность, личность обучающегося, образование, обучение, критерии, специалист, уровень профессионализма, профессиональная личностность, актуальность.

Annotation: in this article, they study ways of developing the Methodist's andrologic communicative, methodical work, the analysis of the competence of the Methodist in the process of professional development and applying his theoretical knowledge to practice, fill their gaps, exchange experience with professors and listeners of the center and carry out creative work in this direction, opinions on the necessary methodological materials

Keywords: professional, qualification, the process of raising, Methodist, andrologic, (communicative, analysis of methodical work,) competence, development, Andrology, the personality of the reader, education, classes, criteria, specialist, professional level, professional personal, relevance.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i F-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"da, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlari bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o'rganishga e'tibor qaratgan holda ixtisoslashtirilgan sinf va maktablarni yaratish amaliyotini kengaytirish usuli bilan maktablarda ta'lim sifatini tubdan yaxshilash; 10-11 - sinf o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan, shu jumladan, ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o'quvchilarining kasbiy o'qitish imkoniyatlarini kengaytigan holda ta'lim berishni rivojlantirish masalalari xalq ta'limi tizimining ustuvor vazifalari etib belgilab berilgan.

Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nimani tushunamiz? "Competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetentsiya, kompetentlilik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir. Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "o'quvlilik", "xocca", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda. 1. Kommunikativ kompetentsiya jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish; o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'yha olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; muloqotda suhabatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozisiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish; turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarirlarni qabul qila olish;

2. Axborot bilan ishslash kompetentsiyasi mavjud axborot manbalaridan (Internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish, mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; hayot davomida o'qib-o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; o'z hatti-harakatini advokat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish; o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi: Jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya'ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish); mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo'lish; kasbiy mavqeining o'sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo'lish.

5. Umummadiy kompetentsiyalar :

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish; badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish; orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi

- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;
- inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

Kommunikativ kompetentsiya tushunchalarining birinchi bandida "jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda bilmaydi. Xuddi shunday beshinchи yoki to'qqizinchi sinf o'quvchilari ham ona va xorijiy tillarni faqat ma'lum darajada biladi. Shunga ko'ra, mazkur kompetentsiyalarni o'quvchining yoshini hisobga olgan holda sinflarga taqsimlab olishi kerak bo'ladi. yoshdagi va sinfdagi o'quvchi uchun mo'ljallangan? Birinchi sinf o'quvchisi xorijiy til tugul, o'z ona tilini hali mukammal bilmaydi. Xuddi shunday beshinchи yoki to'qqizinchi sin o'quvchilari ham ona va xorijiy tillarni faqat ma'lum darajada biladi. Shunga ko'ra, mazkur kompetentsiyalarni o'quvchining yoshini hisobga olgan holda sinflarga taqsimla olishi kerak bo'ladi Metodistning kompetentsiyasini kommunikativlik metodik ishlarni olib borishda metodist quyidagi vazifalarni bajaradi:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Таълим тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Конуни. 1997 й. 29.08. N 464 –I.
2. "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида". 1997 й. 29.08. N 463 –I.
3. И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. "Маънавият" нашриёти, Тошкент. 2008 й.
- 4.Андреев А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа педагогика // Педагогика. - 2005. - № 4.
5. Алексеева Л. П., Шаблыгина Н.С. Преподавательские кадры: состояние и проблемы профессиональной компетентности. М.: НИИВО, 1994.
6. Байденко В.И., Джерри ван Зантворт. Модернизация профессионального образования: современный этап. Европейский фонд образования. М., 2003.
7. Гришанова Н.А. Развитие компетентности как важнейшее направление реформирования профессионального образования. Десятый симпозиум. Квалиметрия в образовании: методология и практика / Под науч. ред.Н.А. Селезневой и А.И. Субетто. Кн. б. М., 2002.
8. Зимняя И.А. Социальная работа как профессиональная деятельность // Социальная работа / Отв. ред. И.А.Зимняя. Вып. 2. М., 1992.